| <b>Matkarimova Ayman Jengisbaevna</b>                                                                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTONDA AGROSUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY OMILLARI .....                                                                             | 303 |
| <b>Jo'rayeva Sarvinoz Baxtiyor qizi</b>                                                                                                                                |     |
| BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....                                                                 | 309 |
| <b>Mustafayeva Sevara Rustamovna</b>                                                                                                                                   |     |
| O'ZBEKISTONDA SHAXSIY SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....                                                      | 314 |
| <b>Qodirova Farangiz Komilovna</b>                                                                                                                                     |     |
| COMPARATIVE ANALYSIS OF TOURISTS' HOTEL SELECTION PREFERENCES IN THE MAJOR TOURISM REGIONS OF UZBEKISTAN.....                                                          | 320 |
| <b>Sardor Kuvandikov</b>                                                                                                                                               |     |
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI .....                                                                 | 329 |
| <b>Madenova Elmira Nizamatdinovna</b>                                                                                                                                  |     |
| BOSHQARUV SIFATINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI .....                                                                                    | 334 |
| <b>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</b>                                                                                                                                  |     |
| O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHI KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA TARMOQNI 2032-YILGACHA RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASH .....                                              | 340 |
| <b>Usmonov Mirumar Abdulla o'g'li</b>                                                                                                                                  |     |
| YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJINING DRAYVERI SIFATIDA DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH.....                                                                       | 349 |
| <b>Jannazarova Gauxar Kaipnazarovna</b>                                                                                                                                |     |
| <b>Raxmatova Sevinch Sobir qizi</b>                                                                                                                                    |     |
| O'ZBEKISTONDA IFRSGA O'TISH JARAYONIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNING BOSHQARUV QARORLARIGA TA'SIRI: UZAUTO MOTORS MISOLIDA.....                                             | 353 |
| <b>Samaroxonov Asqarxon Jamolxon o'g'li</b>                                                                                                                            |     |
| <b>Jo'rayeva Zahro Toshpo'latovna</b>                                                                                                                                  |     |
| SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....                                                                 | 358 |
| <b>Pyotr Kim</b>                                                                                                                                                       |     |
| TOSHKENT VILOYATI BO'STONLIQ TUMANIDA TURISTIK ZONALARNI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIYIQTISODIY AHAMIYATI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA)..... | 364 |
| <b>Tolibboyev Zafarbek Axror o'g'li</b>                                                                                                                                |     |
| TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                           | 372 |
| <b>Qarshiboyev Lochinbek Xusan o'g'li</b>                                                                                                                              |     |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ASOSIY VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILINI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....           | 379 |
| <b>Muxidinov Ayubbek Nuritdinovich</b>                                                                                                                                 |     |
| QASHQADARYODA NODAVLAT UNIVERSITETLARINING TASHKILIY RIVOJLANISHI: TALABALAR VA XODIMLAR POTENSIALINI TARKIBIY VA DEMOGRAFIK TAHLIL.....                               | 382 |
| <b>Rahimov Sardor Uralovich</b>                                                                                                                                        |     |



|                                                                         |     |
|-------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING JOYLASHUVINING HOZIRGI HOLATI..... | 388 |
| <b>Kudratov Muhammad Rustamovich</b>                                    |     |



# O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING JOYLASHUVINING HOZIRGI HOLATI.

Kudratov Muhammad Rustamovich

Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda sanoat korxonalarining hududiy joylashuvining (territorial dislokatsiyasining) hozirgi holati tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — ishlab chiqaruvchi kuchlarning makonsal taqsimotini baholash va hududiy nomutanosibliklarni yumshatish yo'nalishlarini asoslashdir. Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida sanoat salohiyatining hududiy konsentratsiyasi va qutblanish (polarizatsiya) darajasi aniqlangan. Tahlil natijalari sanoatning poytaxt-aglomeratsiya hamda resurs-eksport yo'nalishidagi hududlar atrofida yuqori darajada to'planganini ko'rsatadi. Muallif korxonalar soni va ishlab chiqarish intensivligi o'rtasida bevosita muvofiqlik yo'qligini aniqlagan. Ilmiy yangilik makonsal asimmetriyani o'sish qutblari va sanoat klasteri konsepsiyalari nuqtayi nazaridan baholashda namoyon bo'ladi. Xulosada hududiy nomutanosibliklarni yumshatishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** sanoat korxonalari, hududiy joylashuv, ishlab chiqaruvchi kuchlar, hududiy konsentratsiya, maxsus iqtisodiy zona, sanoat klasteri, o'sish qutblari, sanoatlashuv, hududiy nomutanosiblik.

**Аннотация.** В статье анализируется современное состояние территориального размещения (территориальной дислокации) промышленных предприятий в Узбекистане. Цель исследования — оценить пространственное распределение производительных сил и обосновать направления смягчения территориальных диспропорций. На основе официальных статистических данных определены уровень территориальной концентрации промышленного потенциала и степень пространственной поляризации. Результаты анализа показывают, что промышленность в значительной степени сосредоточена вокруг столичной агломерации и регионов, ориентированных на ресурсно-экспортную специализацию. Автор выявил отсутствие прямого соответствия между количеством предприятий и интенсивностью промышленного производства. Научная новизна исследования заключается в оценке пространственной асимметрии с позиций концепций полюсов роста и промышленных кластеров. В заключении разработаны практические рекомендации, направленные на сокращение территориальных диспропорций.

**Ключевые слова:** промышленные предприятия, территориальное размещение, производительные силы, территориальная концентрация, специальная экономическая зона, промышленный кластер, полюса роста, индустриализация, территориальные диспропорции.

**Abstract.** This article analyzes the current state of the territorial distribution (territorial dislocation) of industrial enterprises in Uzbekistan. The aim of the study is to assess the spatial distribution of productive forces and substantiate approaches to reducing regional disparities. Based on official statistical data, the study identifies the degree of territorial concentration of industrial potential and the level of spatial polarization. The findings indicate that industrial activities are highly concentrated around the capital agglomeration and resource-export-oriented regions. The author reveals that there is no direct correspondence between the number of enterprises and the intensity of industrial production. The scientific novelty of the study lies in evaluating spatial asymmetry through the concepts of growth poles and industrial clusters. The paper concludes with practical recommendations aimed at reducing territorial disparities.

**Keywords:** industrial enterprises, territorial distribution, productive forces, territorial concentration, special economic zone, industrial cluster, growth poles, industrialization, regional disparities.

## KIRISH

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning oqilona joylashtirilishi resurslardan samarali foydalanish va transaksiya xarajatlarini minimallashtirish bilan birga, hududlarning barqaror va inklyuziv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ham ta'minlaydi. O'zbekistonda industrial-innovatsion rivojlanish bosqichida sanoat salohiyatining hududlar kesimida notekis joylashishi — territorial nomutanosiblik (regional disparity) muammosi tobora dolzarblashib



bormoqda, bu esa mavzuni ilmiy tadqiq etish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqotning obyekti — O'zbekiston Respublikasi sanoatining hududiy tuzilmasi; predmeti — sanoat korxonalarining makonsal joylashuvi jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar. Maqolaning maqsadi — sanoat korxonalari joylashuvining hozirgi holatini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida kompleks baholash va makonsal nomutanosibliklarni yumshatishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: (a) sanoat korxonalarining hududiy taqsimotini miqdoriy tahlil qilish; (b) sanoat zonalar va texnoparklar tarmog'ining makonsal tuzilmaga ta'sirini baholash; (c) hududiy ixtisoslashuv va konsentratsiya tendensiyalarini aniqlash.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarining makonsal joylashuvi muammosi iqtisodiyot fanida uzoq nazariy an'anaga ega. Klassik joylashuv nazariyasining asoschisi A. Veber sanoat shtandortini transport, mehnat va aglomeratsiya omillari muvozanati asosida optimallashtirish g'oyasini ilgari surdi. A. Lyosh va V. Kristaller markaziy o'rinlar (central places) nazariyasi orqali ishlab chiqarish va xizmatlarning ierarxik makonsal tashkil etilishini asoslab berdilar. P. Krugman tomonidan rivojlantirilgan yangi iqtisodiy geografiya (new economic geography) miqyos samarasi va transport xarajatlari o'zaro ta'sirida iqtisodiy faollikning makonsal markazlashuvini izohlaydi.

Hududiy rivojlanish nazariyasida F. Perru ilgari surgan o'sish qutblari (growth poles) konsepsiyasi tanlangan hududlarda propulsiv tarmoqlarni rivojlantirish atrof hududlarga tarqaluvchi multiplikativ samara berishini asoslaydi. M. Porter sanoat klasterlari konsepsiyasida hududiy raqobatbardoshlikni geografik jihatdan jamlangan o'zaro bog'liq korxonalar tarmog'i bilan izohlaydi. Maxsus iqtisodiy zonalarining hududiy rivojlanishga ta'siri Jahon banki tadqiqotlarida empirik o'rganilgan. Mahalliy tadqiqotchilardan A. Vafoyev, D. Saidaxmedova va D. Farmonov O'zbekistonda sanoat zonalar hamda erkin iqtisodiy zonalarining shakllanishi va hududlarni rivojlantirishdagi rolini tahlil qilganlar.

Mavjud ilmiy ishlardan farqli ravishda, ushbu maqolada sanoat korxonalarining joylashuvi makonsal konsentratsiya va qutblanish nuqtayi nazaridan, korxonalar soni hamda ishlab chiqarish intensivligi o'rtasidagi nomutanosiblikni hisobga olgan holda kompleks tarzda baholanadi. Bu yondashuv hududiy sanoat siyosatini takomillashtirish uchun yangi tahliliy asos yaratadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2023–2026-yillarga oid rasmiy ma'lumotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Tahlil birligi sifatida yuridik shaxs maqomidagi sanoat korxonasi (tog'-kon, qayta ishlash sanoati, elektr energiyasi va gaz ta'minoti, suv ta'minoti — B, C, D, E seksiyalar) hamda ma'muriy-hududiy birlik (Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri) qabul qilingan.

Ishda statistik-iqtisodiy tahlil (guruhlash va qiyosiy taqqoslash), hududiy konsentratsiya tahlili, kartografik-makonsal yondashuv hamda institutsional tahlil usullari majmuasidan foydalanildi. Xususan, qiyosiy taqqoslash usuli yordamida hududlarning sanoat korxonalari soni va ishlab chiqarish intensivligi bo'yicha ko'rsatkichlari respublika bo'yicha o'rtacha daraja bilan solishtirildi va makonsal nomutanosiblik aniqlandi. Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ko'rsatkichi sanoatlashuv intensivligini me'yorlashtirilgan tarzda baholash uchun qo'llanildi. Ma'lumotlar taqqoslanuvchanligini ta'minlash maqsadida fermer va dehqon xo'jaliklari hisobga olinmagan ko'rsatkichlardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yakunlari bo'yicha mamlakat yalpi ichki mahsuloti joriy narxlarda 1 849,7 trln so'mni tashkil etib, real o'sish 7,7 foizga, sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi esa 6,8 foizga yetdi. 2025-yil 1-mart holatiga ko'ra mamlakatda qariyb 56,8 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritdi. Sanoat tuzilmasida qayta ishlash sanoatining ulushi 86 foizni, tog'-kon sanoati 7 foizni, elektr energiyasi va gaz ta'minoti 6,4 foizni tashkil etib, qayta ishlovchi tarmoqlarning ustuvorligi kuzatiladi (1-jadval).



1-jadval.

O'zbekiston sanoatining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (2025-yil)

| Ko'rsatkich                                   | Qiymat            |
|-----------------------------------------------|-------------------|
| Yalpi ichki mahsulot (joriy narxlarda)        | 1 849,7 trln so'm |
| YalM real o'sish sur'ati                      | 107,7 %           |
| Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi   | 106,8 %           |
| Sanoatning YalMdagi ulushi                    | 26,1 %            |
| Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni | ≈ 56,8 ming       |
| Qayta ishlash sanoatining ulushi              | 86,0 %            |
| Tog'-kon sanoatining ulushi                   | 7,0 %             |
| Elektr energiyasi, gaz ta'minotining ulushi   | 6,4 %             |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari [11] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Sanoat korxonalarining ma'muriy-hududiy taqsimoti yaqqol ifodalangan makonsal asimmetriya bilan tavsiflanadi. Korxonalar soni bo'yicha Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand va Farg'ona viloyatlari yetakchilik qiladi; ushbu hududlar poytaxt-aglomeratsiya va Farg'ona vodiysi makonsal yadrolarini hosil etadi (2-jadval).

2-jadval.

**Sanoat korxonalarining hududlar kesimida konsentratsiyasi**

| No | Hudud                                                   | Konsentratsiya darajasi      |
|----|---------------------------------------------------------|------------------------------|
| 1  | Toshkent shahri                                         | Juda yuqori (yadro)          |
| 2  | Toshkent viloyati                                       | Juda yuqori                  |
| 3  | Samarqand viloyati                                      | Yuqori                       |
| 4  | Farg'ona viloyati                                       | Yuqori                       |
| 5  | Andijon viloyati                                        | O'rtacha-yuqori              |
| 6  | Namangan viloyati                                       | O'rtacha                     |
| 7  | Qashqadaryo viloyati                                    | O'rtacha                     |
| 8  | Buxoro viloyati                                         | O'rtacha                     |
| 9  | Navoiy viloyati                                         | Past (lekin yuqori intensiv) |
| 10 | Surxondaryo, Jizzax, Xorazm, Sirdaryo, Qoraqalpog'iston | Nisbatan past                |

Manba: Milliy statistika qo'mitasi va hududiy statistika boshqarmalari ma'lumotlari [11] asosida umumlashtirilgan.

Bu holat A. Veber va P. Krugman nazariyalari nuqtayi nazaridan mehnat resurslari, iste'mol bozori va aglomeratsiya omillarining birgalikdagi ta'siri bilan izohlanadi.

Tahlil korxonalar soni bo'yicha yetakchilik bilan ishlab chiqarish intensivligi har doim ham mos kelmasligini ko'rsatdi. Navoiy viloyati korxonalar sonining nisbatan kamligiga qaramay, yirik tog'-kon-metallurgiya va energetika majmualari hisobiga aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha respublika o'rtacha ko'rsatkichidan sezilarli darajada yuqori turadi — bu kapital sig'imkor va resurs yo'naltirilgan sanoatga xos yuqori lokalizatsiyaning namunasidir. Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning respublika bo'yicha o'rtacha qiymati (2025-yil I chorak) 7,6 mln so'mni tashkil etgan holda, sanoatlashgan hududlarda u 13,6 mln so'mga yetdi. Toshkent shahrining YalMdagi ulushi bir necha yil ichida 18,5 foizdan 21 foizga ko'tarilib, makonsal markazlashuv (sentripetal) tendensiyasi davom etayotganini tasdiqladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni maqsadli qayta joylashtirishning asosiy institutsional vositasi bo'lib maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ), kichik sanoat zonalar (KSZ), texnoparklar va klasterlar tizimi xizmat qilmoqda (3-jadval).



3-jadval.

Hududiy-iqtisodiy tuzilmalar va ulardagi korxonalar soni

| Tuzilma turi                   | Tuzilmalar soni | Korxonalar soni |
|--------------------------------|-----------------|-----------------|
| Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) | 22              | 752             |
| Kichik sanoat zonalari (KSZ)   | 323             | 2 488           |
| Texnoparklar                   | 24              | 1 501           |
| Klasterlar                     | 450             | 455             |

Manba: Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari [12] asosida tuzilgan.

Ushbu tuzilmalar Jahon banki ta'kidlaganidek, soliq-bojxona imtiyozlari va hozirlangan infratuzilma orqali investitsiyalarni jalb etish va sanoatni geografik kengaytirish vositasidir.

Maxsus iqtisodiy zonalar geografiyasi makonsal-tarmoq ixtisoslashuvini aks ettiradi: «Navoiy» zonasi yuqori texnologiyali va eksportbop ishlab chiqarishga, «Angren» zonasi metallni qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan. Prezident Farmoniga muvofiq Andijon, Namangan va Qashqadaryo viloyatlarida to'qimachilikka ixtisoslashgan kichik sanoat zonalari shakllantirilib, hududiy ixtisoslashuv chuqurlashtirilmoqda. Hududiy mehnat taqsimoti tahlili xomashyo qazib olish asosan Navoiy, Qashqadaryo, Buxoro va Qoraqalpog'istonda, chuqur qayta ishlash esa Andijon, Farg'ona, Toshkent viloyati va poytaxtda jamlanganini ko'rsatdi (4-jadval).

4-jadval.

Asosiy hududlarning sanoat ixtisoslashuvi

| Hudud                       | Yetakchi sanoat yo'nalishi                                      |
|-----------------------------|-----------------------------------------------------------------|
| Toshkent sh. va viloyati    | Mashinasozlik, oziq-ovqat, to'qimachilik, kimyo, elektrotexnika |
| Navoiy viloyati             | Tog'-kon-metallurgiya, energetika, kimyo, qurilish materiallari |
| Qashqadaryo, Buxoro         | Neft-gaz qazib olish, gaz-kimyo, energetika                     |
| Andijon, Farg'ona, Namangan | Avtomobilsozlik, to'qimachilik, qayta ishlash, oziq-ovqat       |
| Samarqand                   | Oziq-ovqat, qurilish materiallari, mashinasozlik                |
| Qoraqalpog'iston Resp.      | Gaz-kimyo (Ustyurt majmuasi), tog'-kon, energetika              |

Manba: hududiy iqtisodiyot bo'yicha ilmiy manbalar [8–10] va statistik ma'lumotlar [11] asosida tuzilgan.

Olib borilgan tahlil natijasida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi: birinchidan, sanoat salohiyatining haddan ortiq makonsal markazlashuvi va hududiy qutblanishning kuchayishi; ikkinchidan, agrar va chekka hududlarda sanoatlashuv darajasining pastligi hamda ichki mehnat migratsiyasining kuchayishi; uchinchidan, korxonalar soni va ishlab chiqarish intensivligi o'rtasidagi nomutanosiblik. Hatto poytaxtga tutash Toshkent viloyatining ayrim tumanlarida sanoat hajmi yondosh hududlarga nisbatan bir necha barobar past ekani makonsal nomutanosiblik hududlararo darajada ham mavjudligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot O'zbekistonda sanoat korxonalarining joylashuvi yuqori darajadagi makonsal qutblanish bilan tavsiflanishini ko'rsatdi: sanoat salohiyati poytaxt-aglomeratsiya, Farg'ona vodiysi va resurs-eksport yo'nalishidagi hududlar atrofida konsentratsiyalashgan. Korxonalar soni va ishlab chiqarish intensivligi o'rtasida bevosita muvofiqlik mavjud emas: resurs yo'naltirilgan hududlar kam sonli, ammo yuqori quvvatli korxonalar hisobiga aholi jon boshiga yuqori ko'rsatkichni ta'minlaydi. Maxsus iqtisodiy zonalar va texnoparklar tarmog'i makonsal qayta taqsimotning samarali, biroq hali to'liq tenglashtiruvchi ta'sirga ega bo'lmagan institutsional vositasidir.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- agrar va kam sanoatlashgan hududlarda mahalliy xomashyo bazasiga asoslangan qayta ishlash korxonalarini joylashtirishni rag'batlantirish;
- F. Perru o'sish qutblari konsepsiyasi asosida hududiy yadrolardan tashqarida yangi sanoat o'sish nuqtalarini shakllantirish;
- M. Porter klaster yondashuvidan foydalanib, hududiy sanoat klasterlari va kooperatsion aloqalarni mustahkamlash;
- transport-logistika va muhandislik infratuzilmasini chekka hududlarga yo'naltirib, investitsion jozibadorlikni oshirish;



— maxsus iqtisodiy zonalaridagi investitsiyalar barqarorligini ta'minlovchi institutsional mexanizmlarni takomillashtirish.

Kelgusi tadqiqotlarda makonsal ekonometrik modellar (lokalizatsiya koeffitsienti, Herfindal–Hirshman indeksi) yordamida hududiy konsentratsiyani miqdoriy o'lchash istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Weber A. *Theory of the Location of Industries*. — Chicago: University of Chicago Press, 1929. — 256 p.
2. Lösch A. *The Economics of Location*. — New Haven: Yale University Press, 1954. — 520 p.
3. Christaller W. *Central Places in Southern Germany*. — Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1966. — 230 p.
4. Krugman P. *Increasing Returns and Economic Geography* // *Journal of Political Economy*. — 1991. — Vol. 99, No. 3. — P. 483–499.
5. Perroux F. *Note sur la notion de pôle de croissance* // *Économie Appliquée*. — 1955. — No. 1–2. — P. 307–320.
6. Porter M.E. *The Competitive Advantage of Nations*. — New York: Free Press, 1990. — 855 p.
7. World Bank Group. *Special Economic Zones: An Operational Review of Their Impacts*. — Washington, D.C.: World Bank, 2017. — 122 p.
8. Vafoyev A. *O'zbekistonda sanoat zonalarining rivojlanish bosqichlari va huquqiy-me'yoriy asoslari* // *Green Economy and Development*. — 2025. — Vol. 3, No. 9. — DOI: 10.5281/zenodo.17149245.
9. Saidaxmedova D.S. *Erkin iqtisodiy zonalar — hududlarni rivojlantirishning muhim omili sifatida* // *Экономика и социум*. — 2024. — No. 2–1 (117). — B. 617–620.
10. Farmonov D.D. va boshq. *Kichik sanoat zonalarining rivojlanishi va hozirgi holati tahlili* // *International Journal of Science and Technology*. — 2025. — Vol. 2. — No. 5. — B. 129–132.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Sanoat ishlab chiqarishi: statistik axborot (2025-yil)*. — Toshkent: stat.uz, 2026. — URL: <https://stat.uz>
12. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. *Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati to'g'risida hisobot*. — Toshkent: miit.uz, 2024.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-71-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7486412>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>